

# **Konstitutsiya - ertangi kunimiz va kelajagimiz poydevori**



Termiz shahridagi muhtasham San'at saroyida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy va boshqa sohalar vakillari, faol yoshlari ishtirok etgan tadbirda mamlakatimiz barcha tarmoqlarida yuz berayotgan o'zgarish va yangilanishlar Vatanimiz taraqqiyoti hamda xalqimiz farovonligini taminlashga xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlari, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari, ularning kafolatlari o'z aksini topgan Asosiy qonunimiz jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilishda muhim omil bo'layotgani qayd etildi.

Tantanali tadbirda taniqli san'atkorlar ijrosida namoyish etilgan kontsert dasturi barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.

Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi o'rinosi I.Saparov so'zga chiqdi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati